

**Xalq ta'limi vazirligi tizimidagi umumiy o'rta ta'lim muassasalarida
faoliyat yuritayotgan malakali pedagog kadrlarni oylik ustamalar to'lash
orqali moddiy rag'batlantirish maqsadida saralash test sinovini o'tkazish
uchun texnologiya (servis xizmat yo'nalishi) fanidan test topshiriqlari
spetsifikatsiyasi**

Mazkur spetsifikatsiyaga amaldagi o'quv me'yoriy hujjatlarga muvofiq qo'shimcha, o'zgartirish va tuzatishlar kiritilishi mumkin.

1. Test topshiriqlarining qo'llanishi

Spetsifikatsiya Xalq ta'limi vazirligi tizimidagi umumiy o'rta ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan malakali pedagog kadrlarni texnologiya (servis xizmat yo'nalishi) fanidan oylik ustamalar to'lash orqali moddiy rag'batlantirish maqsadida saralash test sinovlarini o'tkazish uchun o'qituvchilarning bilim darajasini aniqlab berishga mo'ljallangan.

2. Test sinovi topshiriqlarining mazmunini belgilovchi me'yoriy hujjatlar:

– Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlan darsliklar, o'quv qo'llanmalari va oliy ta'lim muassasalari tomonidan tasdiqlangan fan dasturi;

– Xalq ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan umumiy o'rta ta'lim uchun texnologiya (servis xizmat yo'nalishi) fanidan takomillashtirilgan o'quv dasturi, darsliklar va o'quv qo'llanmalar;

– O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xalq ta'limi vaziri jamg'armasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2022-yil 2-avgustdagi VM-425-son qarori;

– O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-son qarori.

3. Test sinovi topshiriqlarining mazmuni va tuzilishi.

Texnologiya (servis xizmat yo'nalishi) fanidan test topshiriqlari tegishli vazirlik va idoralar tomonidan tasdiqlangan darsliklar, o'quv qo'llanmalar va fan dasturlari asosida ishlab chiqiladi.

Test topshiriqlari Xalq ta'limi vazirligi tizimidagi umumiy o'rta ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan malakali pedagog kadrlarni oylik ustamalar to'lash orqali moddiy rag'batlantirish maqsadida saralash test sinovini o'tkazish uchun texnologiya (servis xizmat yo'nalishi) fani bo'yicha tayyorgarlik darajasini aniqlab berishga yo'naltiriladi. Ular o'qituvchilarda texnologiya (servis xizmat yo'nalishi) fani bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini o'zlashtirganlik darajasini sinovdan o'tkazadi.

4. Test topshiriqlari tuzilishi.

Test topshiriqlari quyidagi test turlaridan iborat bo'lishi mumkin:

Y1 – to'rtta javob variantli, bitta to'g'ri javobli yopiq test;

Y2 – to'rttadan ko'p javob variantli, bir nechta to'g'ri javobli yopiq test;

Y3 – to'rtta savolga to'rtta to'g'ri javobni mos qo'yadigan yopiq test;

Y4 – har biri “to'g'ri” yoki “noto'g'ri” deb belgilanadigan to'rtta savoldan iborat yopiq test.

Test varianti topshiriqlari fan bo'limlari va qiyinlik darajasi bo'yicha taqsimlanishiga asoslanib tuziladi. Test varianti, asosan, (Y1) to'rtta javob variantli, bitta to'g'ri javobli yopiq test topshiriqlaridan iborat bo'ladi.

Shuningdek, test topshiriqlari varianti turli (oson, o'rta, yuqori) qiyinlik darajasida tuzilgan test topshiriqlaridan tashkil topadi.

Texnologiya (servis xizmat yo'nalishi) fanidan barcha test topshiriqlari variantlarida qiyinlik darajasi bir xilda saqlanib, quyidagicha taqsimlanadi:

Test topshiriqlarining qiyinlik darajasi	Topshiriqlar soni	Topshiriqlar ulushi (%)
Oson	10	25
O'rta	20	50
Yuqori	10	25
Jami:	40	100

Texnologiya (servis xizmat yo'nalishi) fanidan shakllantiriladigan variant, 10 ta oson, 20 ta o'rta va 10 ta yuqori qiyinlik darajasidagi jami 40 ta test topshirig'idan iborat bo'ladi.

Test topshiriqlari variantlarining ekvivalentligi quyidagicha ta'minlanadi:

- har bir variant maxsus kompyuter dasturi asosida test varianti topshiriqlari fan bo'limlari va qiyinlik darajasi bo'yicha taqsimlanishiga va ushbu spetsifikatsiyaga muvofiq shakllantiriladi.

- taqdim etiladigan barcha variantlardagi test topshiriqlari qiyinlik darajasining bir xilligi ta'minlanadi;

- turli (oson, o'rta, yuqori) qiyinlik darajasidagi barcha test topshiriqlarini tuzishda darsliklardagi qo'shimcha ma'lumotlar, texnologiya (servis xizmat yo'nalishi) faniga oid tayanch iboralar, atamalar, topshiriqlar, lug'atlar va rasmlardagi ma'lumotlardan foydalaniladi.

5. Test topshiriqlarining mazmun, ko'nikma va malakalar bo'yicha taqsimlanishi.

Test varianti topshiriqlari fan bo'limlari va qiyinlik darajasi bo'yicha taqsimotida aks etgan bo'limlarga oid mazmunni hamda 10 ta paragraf, 10 ta punktini o'z ichiga oladi.

Test varianti topshiriqlari fan bo‘limlari va qiyinlik darajasi bo‘yicha taqsimoti:

Texnologiya (servis xizmat yo‘nalishi)

Paragraf	Punkt	Mavzu	Qiyinlik darajasi		
			oson	oʻrta	yuqori
Oziq-ovqat mahsulotlariga ishlov berish texnologiyasi					
1	1	Ovqatlanishning inson hayotidagi ahamiyati. Pazandachilik xonasi va uning jihozlanishiga qoʻyiladigan talablar. Sabzavotlarga ishlov berish texnologiyasi. Un va don mahsulotlarining ozuqaviy qiymati va ahamiyati. Sut va sut mahsuloti turlari, sifatiga boʻlgan talablar, saqlanishi va muddati. Xamir turlari va ularni tayyorlash texnologiyasi. Parhez taomlar tayyorlash texnologiyasi. Goʻsht mahsulotlarining ozuqaviy qiymati, ahamiyati, turlari, ularning sifatiga boʻlgan talablar. Goʻshtdan tayyorlanadigan yarimfabrikatlar, ulardan foydalanish va saqlanishiga qoʻyiladigan talablar. Baliqni tozalash va boʻlaklarga boʻlish tartibi. Oshxonada qoʻllaniladigan idishlardan foydalanish va saqlash. Pazandachilikda ishlatiladigan sovitchik va muzlatkichlar. Pazandachilikda va qandolatchilikda ishlatiladigan texnologik jihozlar va ulardan foydalanish qoidalari. Elektr goʻsht qiymalagichdan foydalanish. Dasturxon tuzash, sochiq turlari va ulardan foydalanish. Taom tayyorlash texnologiyasi: tuxumdan tayyorlanadigan taomlar, buterbrod, qaynatma shoʻrva, shirguruch, mastava, palov, karam va uzum bargidan doʻlma, lagʻmon, qatlama, lochira, turli shirinliklar tayyorlash texnologiyalari va ularni dasturxonga tortish. Sabzavot va mevalarni konservalash, mavsumiy tuzlamalar tayyorlash.			
Materiallarga ishlov berish texnologiyasi					
2	1	Gazlamashunoslik. Toʻqimachilik tolalari, ip va gazlamalar. Paxta va zigʻir tolasining arqoq va tanda iplari. Polotno va sarja toʻqish. Gazlamaning oʻng va teskarisini aniqlash. Jun va ipak tolali gazlamalar, ularning olinishi, xossalari. Gazlamalarning toʻqilish usullari. Atlas va satin toʻqish. Kimyoviy tolalarning olinishi va xossalari. Asbob-uskunalar va ulardan foydalanish. Qoʻl ishlari uchun asbob-uskunalar, tikuv mashinasida ishlatiladigan kichik			

		mexanizatsiya vositalaridan foydalanish. Qo'l choklari namunalari. Furnituralar, ilgak, xalqa turlari. Gazlamaga tugmacha va piston tikish. Mashinashunoslik. Tikuv mashinalari turlari: qo'l, oyoq va elektr yuritali tikuv mashinalari va ularning tuzilishi, ishlatilishi. Maxsus ish bajaradigan tikuv mashinalari. Mashina choklari turlari va ularni tikish usullari.			
Energiyani ishlab chiqarish va undan foydalanish					
3	1	Energiya turlari. Batareya turlari. Gidravlik uzatmalar. Loyihalash ishi bosqichlari. Harakatlantiruvchi sodda mexanizmlarni loyihalash va yasash.			
Ijtimoiy-iqtisodiy texnologiya asoslari					
4	1	Oila iqtisodiyotining inson hayotidagi o'rni. Ekoparkni tashkil qilish. Ijodiy loyiha tayyorlash texnologiyasi.			
Gazlamaga ishlov berish texnologiyasi					
5	1	Konstruksiyalash va modellashtirish asoslari. Kiyim haqida umumiy ma'lumot. Gavdaning antropometrik nuqtalari. Gavdadan olinadigan o'lchov turlari. Kiyim chizmasini qurish uchun kerakli o'lchovlarni gavdadan olish. Bolalar kiyimi, fartugi chizmasini qurish, modellashtirish va bichish. Beldan kiyiladigan kiyim turlari. Yubka chizmasini qurish va yubka eskizlarini chizish hamda ularni modellashtirish. O'tkazma yengli, reglan yengli va yaxlit engli ko'ylak chizmalarini qurish va ko'ylaklar eskizlarini chizish hamda ularni modellashtirish. Andozalarni tayyorlash. Tikiladigan kiyim uchun gazlama va fason tanlash. Dizayner-modeler kasbi to'g'risida tushunchalar. Milliy kiyimlar va ularning turlari. Mahsulot ishlab chiqarish texnologiyasi. Gazlamani bichishga tayyorlash. Yubka va shim andozalarini gazlamaga joylashtirish va bichish. Birinchi kiydirib ko'rishga tayyorlash va kiydirib ko'rib, aniqlangan nuqsonlarni bartaraf qilish. Yubkaning taqilmasiga, yon choklariga, bel va etak qismlariga hamda yubkaga oxirgi ishlov berish. Ko'ylak andozalarini gazlamaga joylashtirish va bichish. Birinchi kiydirib ko'rishga tayyorlash va kiydirib ko'rib, aniqlangan nuqsonlarni bartaraf qilish. Ko'ylakning yoqasiga, bo'yin, yeng o'mizlariga, taqilmasiga, yon choklariga, etak qismlariga hamda ko'ylakka oxirgi ishlov berish. Namlilik-isiqlik ishlovi berish.			
Xalq hunarmandchiligi texnologiyasi					
6	1	O'zbekistonda xalq hunarmandchiligining turlari, rivojlanish tarixi va istiqbollari. Xalq hunarmandchiligi			

		tomonidan eksport va ichki bozor uchun ishlab chiqariladigan mahsulotlar. Hunarmandchilikda foydalaniladigan asbob-uskunalar. Zardo'zlik san'ati va unda ishlatiladigan asbob-uskunalar. Zardo'zlikda ishlatiladigan naqsh turlari va ularni gazlamaga ko'chirish usullari. Zar iplardan foydalanish usullari. Zamindo'zi va guldo'zi usullarida tikish. Zardo'zlik qo'llanilgan choynak yopqichni tikish bosqichlari. Nozmunchoq. Nozmunchoq to'qish uchun zaruriy xomashyolar va moslamalar. Nozmunchoqdan turli buyumlar to'qish. Milliy bosh kiyim turlari. Do'ppi tikish ketma-ketligi. Sumka turlari. Gazlamadan sumka tikish: andozasini tayyorlash, bichish, tikish va bezash. Charm bilan ishlash. Soch bezaklarini tayyorlash. Quroqchilik san'ati. Quroq usulida buyumlar tayyorlash texnologiyasi. Kashtachilik tarixi, chok turlari. Buyumlarni kashta bilan bezash. To'qish san'ati. Bolalar qalpoqchasini to'qish texnologiyasi.			
Ishlab chiqarish va ro'zg'orshunoslik asoslari					
7	1	O'zbekistondagi ishlab chiqarish turlari. Texnologik jarayon haqida. Kiyimlarni dazmollash. Maishiy kimyoviy vositalardan foydalanish. Issiqlik, elektr, suv ta'minoti va oqava suv quvurlari tizimidan to'g'ri foydalanish. Kir yuvish mashinalaridan foydalanish. Mebellarni tozalash va saqlash qoidalari. Maishiy kimyoviy vosita turlari va ulardan foydalanish qoidalari. Karvin san'ati.			
Elektronika asoslari					
8	1	Elektronikaning iqtisodiyot tarmoqlaridagi o'rni. Elektr yoritish asboblari			
Kasb tanlashga yo'llash					
9	1	Inson hayotida kasbning o'rni. Kasb-hunar egallashda inson salomatligiga qo'yiladigan talablar. Kasblar tasnifi. Kasblarda mehnat turlarining ta'rifi. Kasbni to'g'ri tanlashning mohiyati va istiqboli. Kasb tanlashda shaxs, shaxsiy qiziqish, mayl va qobiliyat. Kasb tanlashdagi onglilik va mustaqillik. Kasbning murakkablik omillari. Kasbga yaroqlilikni belgilash va moyillikni tarbiyalash usullari. Kasbga yaroqlilik, yaroqsizlik, mos kelish va xavas. Kasb tanlashga yo'llash texnologiyasi. Kasb professogrammasi. Kasbga doir shaxsiy reja tuzish. Tanlangan kasb-hunarga doir ma'lumotlar to'plash va taxlil qilish.			
Robototexnika asoslari					
10	1	Arduino. Arduino va uning imkoniyatlari. Distur yordamida svetodiodlarni yoqish va o'chirish. Svetofor			

		yasash. Serial funksiyasi bilan tanishish. IF shart operatori bilan tanishish. Soat yasash. Harorat va namlikni sezuvchi sensor bilan tanishish. Motorni dastur yordamida boshqarish.			
		Jami	10	20	10

6. Ajratilgan vaqt (javoblar varaqasini to'ldirish bilan birga):

- 40 ta test topshirig'i uchun 80 daqiqa.

7. Test topshiruvchilar uchun tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati

1. Q.M.Abdullayeva. Tikuvchilik buyumlarinin loyihalash va modellashtirish asoslari. Toshkent, Yozuvchilar uyushmasi, 2006.
2. N.Gaipova, M.Tursunxodjaeva, Q.Abdullaeva, X.Boboxonova. Tikuvchilik texnologiyasi va jihozlari. Toshkent, "Voriz-nashriyot", 2007.
3. Q.M.Abdullayeva, M.Maksumova, M.Raximjonova. Gazlamaga badiiy ishlov berish. Toshkent, "Cho'lpon", 2009.
4. M.Mo'minova. Pazandalik sirlari. Toshkent, "O'qituvchi", 1995.
5. R.Normuxamedov. Oziq-ovqat tovarshunosligi. Toshkent, 2002.
6. Q.Abdullayeva, G.Ibragimova, N.Gaipova. Qo'lda va mashinada to'qish. Toshkent, 2007.
7. Abdullayeva Q.M., Nigmatova F.U., Gaipova N.S. Tikuvchilik buyumlarini loyihalash va texnologiya asoslari. Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma. Toshkent, TDPU. 2007.
8. G.K.Hasanbayeva. "Kiyim modelini ishlash va loyihalashsini tayyorlash". Toshkent. O'qituvchi. 1990.
9. D.Jabborova. "Zardo'zlik texnologiyasi" fanini o'qitish uslubiyati. T., "ARNAPRINT", 2005.
10. Q.Abdullayeva, N.Gaipova, M.Ismoilova. To'qishni o'rgatish metodikasi. Toshkent, "Ilm-Ziyo", 2007.
11. Q.Abdullayeva, X.Boboxonova, N.Gaipova, M.Ismoilova. Bichish-tikishni o'rgatish metodikasi. Toshkent, "Ilm-Ziyo", 2016.
12. Q.Abdullayeva, M.Mo'minova. Pazandachilikka o'rgatish metodikasi. Toshkent, "Ilm-Ziyo", 2014.
13. M.Mo'minova, M.Maksumova, N.Mansurova. Oziq-ovqat mahsulotlari tovarshunosligi. Toshkent, "Ilm-Ziyo", 2017.
14. Q.M.Abdullayeva, M.Maksumova, M.Raximjonova. Gazlamaga badiiy ishlov berish. Kashtachilik va uni o'qitish metodikasi. Toshkent, "Voriz-nashriyot", 2012.
15. Q.Abdullayeva, N.Gaipova, M.Gafurova. Tikuv buyumlarini loyihalash, modellashtirish va badiiy bezash. Toshkent, Noshir nashriyoti, 2016.
16. X.Rashidov, O.Qo'ysinov, D.Mamatov. Mehnat ta'limi darslarida elektrotexnika bo'limini o'qitish. Metodik qo'llanma. Toshkent, TDPU, 2015.

17. Mirboboyev V.A. Konstruktion materiallar texnologiyasi. – T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2016.
18. Maksumova M.A., Parmonov A.E. Ishlab chiqarishni tashkil etish. Toshkent, Noshir nashriyoti, 2018.

****Izoh: Ushbu spetsifikatsiya O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi huzuridagi Respublika ta’lim markazi bilan kelishilgan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi Ilmiy-metodik kengashning 2022-yil 30-noyabrdagi 6-son yig‘ilishi qarori bilan ma’qullangan.***